

HARBIY XIZMATCHILARNI IJTIMOY HIMOYA QILISHNING ILMIY NAZARIY NEGIZLARI VA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18872622>

Hashimova Gulsina Ismoilovna

Farg'ona davlat universiteti,

Milliy g'oya kafedrası dotsenti

email: ismoilovnagulihonim@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada harbiy ijtimoiy ish va unga yaqin tushunchalar falsafiy tahlil qilingan, harbiy ijtimoiy ishning maqsadlari haqida fikr yuritilgan. Harbiy ijtimoiy ish harbiy xizmatchilarning huquq va imtiyozlarini amalga oshirish, ularning oilalarini qonun bilan himoyalash, shu asosda jangovar shaylikni oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini yuqori darajada saqlash vazifalarini hal etishga qaratilgan faoliyat sifatida talqin qilingan.

Kalit so'zlar

harbiy ijtimoiy ish, imtiyozlar, moddiy yordam, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy himoya, harbiy islohotlar, boshqaruv organlari, harbiy xizmatchilar, ma'naviy-psixologik holat, harbiy intizom, ijtimoiy qo'llab - quvvatlash.

Bugungi kunda harbiy nazariyotchilar harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi va mavqei, davlatning ijtimoiy siyosati va mudofaa qudratining ijtimoiy salohiyati, shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ta'minot va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy salohiyati kabi muammolarni ko'rib chiqmoqdalar.

Harbiy ijtimoiy ishning maqsadi harbiy xizmatchi va harbiy-ijtimoiy muhit, o'ziga xos harbiy jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish, ham harbiy xizmatchining, ham harbiy-ijtimoiy tuzilmaning optimal ishlashini ta'minlashdan iborat.

Bilamizki, har qanday soha mazmunining asosini asosiy kategoriya va tushunchalar tashkil qiladi. Harbiy ijtimoiy ishning xususiyatidan kelib chiqib, kategoriya va tushunchalarni bir nechta toifalarni ajratishni taklif qilamiz:

- boshqa sohalardan o'zlashtirilgan kategoriyalar (ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy tashkilot, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tizim, ijtimoiy institut va boshqalar);

turdosh sohalardan tomonidan faol foydalaniladigan fanlararo kategoriyalar (psixo-ijtimoiy ish, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy farovonlik, ijtimoiy diagnostika, ijtimoiy ehtiyoj va boshqalar)

- harbiy ijtimoiy ishning o'z toifalari (ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy himoya, harbiy ijtimoiy ish va boshqalar).

Shundan kelib chiqib, «Harbiy ijtimoiy ish» tushunchasini tadqiq qilishda «ijtimoiy institut», «ijtimoiy tashkilot», «ijtimoiy tizim» «harbiy jamiyat», kabi atamalar mazmuniga to'xtalib o'tish joiz, deb hisoblaymiz. Ijtimoiy institut lotincha institutum, ruscha lug'aviy ma'nosi - ustanovleniya, o'zbekcha ma'nolarda, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, mahkama, muassasalarni bildiradi.

Ijtimoiy institutlar yoki institutsional sotsiologiya maxsus nazariy yo'nalishdir. Sotsiologiyaga ijtimoiy institut tushunchasi huquqshunoslik fanlaridan kirib kelgan. Ijtimoiy institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim[3]. Yuzaki ko'rinishda, ijtimoiy institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Ijtimoiy institut, qisqacha ta'rifda, odamlarning ijtimoiy tashkillashgan va regulyatsiya qilinadigan faoliyatlarini anglatadi. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va xalqaro sohalariga xos bo'lgan ijtimoiy institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin. [Siyosiy institutlar](#) muayyan hokimiyat mavjudligini, iqtisodiy institutlar esa, moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishini, taqsimlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari jamiyatda bir qator ijtimoiy madaniy institutlar (maorif, sog'liqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan va din institutlari) amal qiladi. [4] Demak, ijtimoiy institutlarning eng muhim turlari sifatida oila va ijtimoiy-madaniy institutlar ko'rsatish mumkin:

Ijtimoiy tashkilotlar tushunchasini va ularning tarkibi asosiy elementlariga esa quyidagicha izoh berish mumkin:

Ijtimoiy institutlar singari ijtimoiy tizim amal qilishini ta'minlaydigan ijtimoiy strukturaning asosiy «hujayra»laridan biri ijtimoiy tashkilotlardir. Tashkilot deb, eng avvalo o'zaro bog'langan va o'ziga hos maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ijtimoiy guruhlariga aytiladi. Ijtimoiy institutlardan farqli ravishda, ijtimoiy tashkilotlar, odamlarning ish jarayonida muayyan vazifalarni bajarishdagi ixtiyoriy yoki majburiy uyushmasi hisoblanadi. «Tashkilot» atamasi ijtimoiy birlashuvlarning shakli sifatida qo'llaniladi. Tashkilot a'zosi bo'lgan odamlarning manfaatlari umumiyligi, tashkilotning ideal holga ega bo'lishini tashkilotning maqsadi uning barcha a'zolari maqsadi bilan muvofiq kelishi ko'zda tutiladi. G'arb sotsiologiyasida ijtimoiy tashkilotlarni [tadqiq qilishda](#), ularning psixologik qonuniyatlariga ko'proq e'tibor beriladi. Masalan: sotsiologik nazariyalarida ijtimoiy tashkilotlardagi subyektning hulqi va motivini psixologik asosda tushuntirishga asoslaniladi.

Tabiatdagi narsalar, jamiyatdagi hodisa va jarayonlar bir butun tizimni tashkil etadi. Tizimli yondashuvning asosiy vazifalaridan biri obyekt to'g'risidagi barcha

bilimlarni bir butun sistemaga keltirishdir. Ijtimoiy tizimlar informatsion, madaniy, individual-shaxsiy sifat va darajalarida ko'rilishi mumkin. Formatsion yondashuvda jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy, mafkuraviy va siyosiy munosabatlardan iborat tabiiy-tarixiy bir butun sistemadir.

Mafkuraviy munosabatlar ijtimoiy tizim sifatida ma'naviy hayot qirralarini o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga ma'naviy munosabatlar [va ular](#) bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar: madaniy muassasalar, fan, milliy mafkura, qadriyatlar va boshqalar. Ijtimoiy tizimlarga xos xususiyat shundaki, shaxs strukturaning asosiy tarkibiy qismi sifatida ishlaydi.

"Ijtimoiy tizim" tushunchasining tizimlarning alohida sinfi sifatidagi alohida ahamiyatini, uning asosiy elementlari odamlar, shuningdek, ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni hisobga olish kerak. Jamiyatlar, tashkilotlar, jamoalar, ijtimoiy va boshqa guruhlar bilan bir qatorda, harbiy ijtimoiy ish ham ushbu tizimlar sinfiga kiradi, chunki u harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan bog'liq. Ya'ni, harbiy-ijtimoiy ishni harbiy-ijtimoiy tizim sifatida haqli ravishda belgilashimiz mumkin.

"Ijtimoiy ish xizmati" tushunchasi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining tegishli ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy ishning bir yoki bir nechta o'ziga xos turlari bilan shug'ullanadigan muassasa (tashkilot, korxona, muassasa) tushuniladi. Harbiy jamiyatning ijtimoiy xizmati deganda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining harbiy va umumiy fuqarolik ijtimoiy muhiti bilan o'zaro munosabatlari jarayonida ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan ijtimoiy xizmatlari va ularning boshqaruv organlari tizimi tushuniladi. Ijtimoiy xizmatning tibbiy-psixologik-pedagogik tabiati harbiy ijtimoiy ish ob'ektining o'ziga xos xususiyatlari va harbiy va umumiy fuqarolik jamiyatidagi odamlar hayoti va faoliyatining tibbiy, psixologik va pedagogik jihatlariga ustuvor yo'naltirilganligi bilan bog'liq.

"Harbiy ijtimoiy ish" tushunchasi haqida esa, oldingi, harbiy ensiklopediyada tushunchalar keltirilmagan Lekin, harbiy masalalarga oid so'zlarning juda ko'p to'plami jamiyatning harbiy ijtimoiy ish haqiqatan ham hodisa sifatida mavjudligini aniq ko'rsatib turibdi. Bundan tashqari, tarixchi olim va yozuvchilarning ba'zi manbalari yoki xorijiy davlatlar olimlarining asarlarida harbiy ijtimoiy ish to'g'risida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, mil. avv. 1 ming yillikka oid yozma yodgorliklar, muqaddas «Avesto» kitobida, shuningdek, ahomaniylar davri kitoblarida (Naqshi Rostam, Bihistun va b.) Turon va Movarounnahrning tabiiy sharoiti, xalqlarining harbiy faoliyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Yurtimizning boy tarixi hamda xalqimizning harbiy faoliyati

haqidagi ma'lumotlarni Ksenofont, Polibiy, Strabon, Ktesiy, Kursiy Ruf, Gerodot, Diodor, shuningdek, arman, xitoy, arab mualliflari tomonidan yaratilgan yozma manbalarda uchratish mumkin. Asrlar davomida mamlakatimizning madaniy-ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy, harbiy hayotiga oid ma'lumotlar ko'plab saroy yilnomachilari, tarixchi olimlar, xonlar tomonidan qo'lyozma shaklida jamlanib borilgan. Urxun-Yenisey toshbitiklari, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kabi asarlarida harbiy ishga oid ko'plab pandnomalarni uchratish mumkin. Ya'kubiyning «Kitob al buldon» («Mamlakatlar haqida kitob»), Tabariyning «Tarixi Tabariy», Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Nasafiyning «Kitob alqand fi tarixi Samarqand» («Samarqand tarixi haqida kitob») hududlar tarixiga doir Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» [5] asarlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixi, mamlakatlar aholisi, ularning hayot tarzi, kasbi-korlari, mamlakatning geografik joylashuvi, ularning harbiy faoliyati, olib borgan kurashlari, mamlakalarda olib borilgan siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlari yoritib berilgan.

Harbiy ijtimoiy ishni tahlil qilishda «harbiy ijtimoiy himoya», “harbiy ijtimoiy xizmatlar” tushunchalarini kiritish qanchalik maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqamiz.

Armiyada harbiy sohaning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini hisobga oladigan bo'lsak, harbiy ijtimoiy qo'llab-quvvatlash alohida ko'rib chiqishimiz mumkin. Harbiy ijtimoiy qo'llab-quvvatlash - bu ijtimoiy inqiroz holatida bo'lgan harbiy jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini davriy ravishda qondirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui. Masalan, harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga yil davomida eng yaqin qarindoshlarini dafn qilish, sog'lig'ini tiklash va boshqalar uchun vaqti-vaqti bilan moddiy yordam ko'rsatishdir. Qiyin hayot sharoitida (ijtimoiy inqiroz holati) bo'lgan shaxslarning ijtimoiy ehtiyojlarini davriy ravishda qondirish ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Ayniqsa, harbiy xizmatchining oilasini boquvchisini yo'qotgan taqdirda, harbiy xizmatchining o'zi xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan taqdirda harbiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati katta.

“Harbiy ijtimoiy xizmatlar” atamasi esa, kengroq tushuncha bo'lib - harbiy jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy ehtiyojlarini ularga keng ko'lamli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali qondirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar majmui [6] Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy, tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy va huquqiy xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy moslashuv va rehabilitatsiya qilish orqali ijtimoiy ehtiyojlari ijtimoiy xizmatlar sifatida tavsiflanadi.

Harbiy jamiyatga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayoni, bir tomondan, harbiy xizmatchilar va harbiy nafaqaxo'rlarning ijtimoiy huquqlari, kafolatlari,

imtiyozlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularga ijtimoiy xizmatlarning yanada kengroq ko'lamini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy va xayriya tadbirlarini o'z ichiga oladi. Bu erda davlat muassasalari va organlari ham muhim rol o'ynaydi: kasaba uyushmalari tashkilotlari, ofitserlar yig'ilishlari kengashlari, faxriylar kengashlari, jangchilarga, nogironlarga, nafaqaxo'rlarga yordam berishning xayriya va boshqa shakllari ham mavjud.

Harbiy ijtimoiy himoya - harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar va ularning oila a'zolarining bir qator ijtimoiy erkinliklari va kafolatlarini yo'qotish xavfini qoplash, oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui[6]. Ijtimoiy himoya ijtimoiy hayotning minimal zarur vositalari va usullarini yo'qotish xavfi ostida bo'lgan harbiy jamiyatni anglatadi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga pul, kiyim-kechak va oziq-ovqat nafaqalari, uy-joy bilan ta'minlash, sog'lig'ini yaxshilash, bo'sh vaqtini va turmush tarzini ta'minlashda qonuniy huquqlarini amalga oshirishda iqtisodiy, huquqiy va amaliy yordam ko'rsatish ijtimoiy himoya qilish choralarga kiradi.

Harbiy ijtimoiy moslashuv – bu sobiq harbiy xizmatchilar, nogironlar va nafaqaxo'rlarni hayot va faoliyatning yangi sharoitlariga qayta yo'naltirishni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar majmui (yangi kasblarni egallashga yordam berish, ish topishda yordam berish va psixologik yordam ko'rsatish). Harbiy ijtimoiy ishning asosiy funktsional yo'nalishlardan harbiy ijtimoiy rehabilitatsiya tushunchasi esa, harbiy jamiyatning huquqiy kafolatlarini, huquq va imtiyozlarini turli sharoitlar tufayli yo'qotilgan taqdirda tiklashga, harbiy xizmatchilar, nafaqaxo'rlar, urush nogironlari, "qaynoq nuqtalar" ishtirokchilarining ekstremal vaziyatda yo'qotgan sog'lig'ini tiklashga qaratilganligi bilan izohlanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun rasmiy davlat va norasmiy xayriya fondlari, harbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya muassasalari va organlari tizimi shug'ullanadi. Bular uning funktsional yo'nalishi nuqtai nazaridan harbiy ijtimoiy ishning asosiy elementlari, ya'ni, uni amalga oshirish bo'yicha faoliyatning asosiy yo'nalishlari mavjud. Ko'rinib turibdiki, bu erda ijtimoiy himoya harbiy ijtimoiy ish elementlaridan biri sifatida faqat tor ma'noda izohlanadi. Nazarimizda, muammoning bunday shakllantirilishi harbiy ijtimoiy xodimlarning vazifalarini tartibga solish va tizimlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu sohalarga harbiy ijtimoiy diagnostika va profilaktika kabilarni qo'shish mumkin. Biroq, bu sohalar uning mazmuni butun tizimini qamrab olmaydi. Harbiy ijtimoiy ishning mohiyati va mazmunini faoliyatning umumiy tuzilishidan kelib chiqqan holda, uslubiy jihatdan sub'ekt-ob'ekt munosabatlari nuqtai nazaridan to'liq ochib berish mumkin ko'rinadi. Harbiy ijtimoiy ish harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar va ularning oila a'zolarini o'z ichiga olgan

aholining aniq guruhlari ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan. Ularni harbiy ijtimoiy ishning mijozlari deb atash mumkin. Ularni o'rab turgan hayot sharoitlarini ijtimoiy harbiy muhit sifatida ifodalanishi mumkin. Ikkinchisiga makro muhit va mikro muhit kiradi. Ijtimoiy harbiy makro muhit mijozlarni o'rab turgan mavjudlik, shakllanishi va hayotiy faoliyatining barcha moddiy va ma'naviy sharoitlarini qamrab oladi. Ijtimoiy harbiy mikro muhit - bu mijozga bo'lgan munosabat, harbiy ijtimoiy ishning aniq mijozlari (oilalar, yashash joyidagi qo'shnilar, harbiy jamoa, manfaatlar uyushmalari va boshqalar) bevosita ijtimoiy muhit kiradi.

Ko'rinib turibdiki, «ijtimoiy qo'llab-quvvatlash» tushunchasiga nisbatan «harbiy ijtimoiy xizmatlar» tushunchasi kengroq ma'no anglatadi. Tahlil qilingan «harbiy ijtimoiy xizmatlar» tushunchasi «ijtimoiy ta'minot», «ijtimoiy yordam», «harbiy ijtimoiy himoya» tushunchalariga nisbatan ancha keng ma'noga ega, lekin bu harbiy ijtimoiy ish bilan bir xil ma'no anglatadi degani emas.

So'nggi yillarda ba'zi harbiy nazariyotchilar «harbiy ijtimoiy ish» ni ijtimoiy hodisa sifatida asoslashgan. Harbiy ijtimoiy ish - harbiy qo'mondonlik va nazorat organlarining harbiy xizmatchilarning qonun bilan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va imtiyozlarini amalga oshirish va shu asosda aholining ushbu toifasini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash bo'yicha faoliyati. Ijtimoiy himoyani ta'minlash bo'yicha tadbirlar harbiy xizmatchilarga davlat tomonidan o'z himoyachilari uchun belgilangan ijtimoiy ta'minot samaradorligining zarur sharti sifatida ularning huquqiy maqomini amalga oshirishni kafolatlovchi vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy ijtimoiy ish - harbiy xizmatchilarning qonuniy ravishda belgilangan maqomi va ularning jamiyatdagi haqiqiy mavqei, ya'ni ijtimoiy mavqei o'rtasidagi mavjud qarama-qarshilikni hal qilishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmi. Muayyan davrda ushbu muammoni hal qilish darajasi olimlar tomonidan ijtimoiy ta'minot sifatida belgilangan. U jamiyatda turli toifadagi harbiy xizmatchilarning eng muhim ijtimoiy huquqlarini qay darajada amalga oshirish, shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish darajasini aks ettiradi, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy mavqei ular o'ynashga chaqirilgan rolga mos keladi.

Xulosa. Demak, harbiy ijtimoiy ishni harbiy qo'mondonlik va nazorat organlari, harbiy mansabdor shaxslarning davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari bilan yaqin hamkorlikda, harbiy xizmatchilarning huquq va imtiyozlarini amalga oshirish uchun huquqiy, tashkiliy, tarbiyaviy vositalardan foydalanib, ularning oilalarini qonun bilan himoyalash va shu asosda jangovar shaylikni oshirish, qonun ustuvorligi va harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini yuqori darajada saqlash vazifalarini hal

etish uchun ijtimoiy sharoitlar yaratish faoliyati sifatida tushunish mumkin. Harbiy-ijtimoiy ishlar qo'shinlarning harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari uchun qonunlarda va urush davri uchun boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan ijtimoiy kafolatlar jangovar harakatlari davomida shaxsiy tarkibning o'z xizmat vazifalarini samarali bajarishi, qismlar va bo'linmalarda qonun-tartibot, harbiy intizomni saqlash uchun ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Юрченко Ю.П. Институт военно-социальной работы: Социально-философский анализ. Дисс. ... канд. филос. наук. автореф. – М., 2001. – 37 с.
2. Фейблман Д. Типы культуры // Антология исследований культуры. – М.: СПб, 1997. – С. 203-224 .
3. Коврижкина, Е.В. Военно-социальная работа на этапе строительства и реформирования Вооруженных Сил России: дис. ... канд. филос. Наук.
4. Иноятлов И.Ю. Ватан ҳимояси – муқаддас бурч – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 59 б.;
5. Саифназаров И.С. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. – Тошкент: Меҳнат, 1997;
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМУ, 2006. – Б.50
7. Тўйчиев Б.Т. Проблемы патриотического воспитания будущих офицеров на этапе становления независимого Узбекистана. – Ташкент, 1996. – 78 с.